

YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM


CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF
ETILGAN TELEFON

Alexander Graham Bell



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



AVGUST
№55

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
1-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-1**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 55-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Баҳром Кучкаров ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯСИ - САЙЛОВ ТИ- ЗИМИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСИ	7
2. Баҳром Кучкаров МИЛЛИЙ САЙЛОВ ҚОНУНЧИЛИГИ: ТАРАҚҚИЁТ ВА ТАКОМИЛ	9
3. Эшимбетова Дармон Уразбаевна АЙРИМ КОРПОРАТИВ НИЗОЛАРНИ СУДДА КЎРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	12
4. Беристенов Самат Оразбаевич SPORT SOHASIDA QIMOR VA NOQONUNIY KELISHILGAN O‘YINLAR O‘TKAZISHGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA XALQARO VA XORIJIY TAJRIBA.....	15
5. Adhamqulov Egamnazar Muhammadiy o‘g‘li VOYAGA YETMAGAN BOLALAR HUQUQLARINING HIMOYALANISHI	19
6. Raximov Baxtiyor Abduxamidovich NATO HARBIY KUCHLARINING AFG‘ONISTONDA TINCHLIK O‘RNATISH BO‘YICHA FAOLIYATI	21



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯСИ - САЙЛОВ ТИЗИМИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСИ

Баҳром Кучкаров,
Ўзбекистон Республикаси
Марказий сайлов комиссияси
Раисининг ўринбосари

Аннотация: ушбу мақолада сайлов тизимининг ҳуқуқий асосига доир илмий-назарий адабиётлар, тегишли статистик маълумотлар ва бошқа амалиёт материалларини ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш орқали ҳал қилиш муҳим эканлиги таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Конституция, сайлов тизими, сайлов, сайлов комиссияси, сайлов участкалари.

Ўзбекистон Республикаси янгиланган Конституциясининг сайлов тизимига бағишланган 22-бобида миллий сайлов тизимига оид муҳим тамойил ва нормалар белгиланди.

Хусусан, Конституциянинг 128-моддасида суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган фуқаролар, шунингдек оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этганлик учун суднинг ҳукмига кўра озодликдан маҳрум этиш жойларида сақланаётган шахслар сайловда иштирок этиш ҳуқуқидан фақат қонунга мувофиқ ҳамда суднинг қарори асосида маҳрум этилиши мумкин. Бошқа ҳар қандай ҳолларда фуқароларнинг сайлов ҳуқуқларини тўғридан-тўғри ёки билвосита чеклашга йўл қўйилмайди.

Шунингдек, Конституциянинг мазкур моддасига асосан Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари давлат ҳокимияти вакиллик органларига сайлаш ва сайланиш ҳуқуқига эгадирлар. Ҳар бир сайловчи бир овозга эга. Овоз бериш ҳуқуқи, ўз хоҳиш-иродасини билдириш тенглиги ва эркинлиги қонун билан кафолатланган.

Ушбу моддада Ўзбекистон Республикаси Президенти муддатидан илгари Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини тайинлашга ҳақли эканлиги белгиланди. Бундан ташқари, унда мустаҳкамланган сайлов ҳуқуқининг муҳим принциплари сайлов жараёнларини ҳалқаро сайлов стандартлари асосида очиқ-ошкора ва демократик тарзда ўтказишга хизмат қилади.

Марказий сайлов комиссиясининг ҳаққоний, адолатли, демократик сайловларни ташкил этиш ва ўтказишдаги ролини янада ошириш ва ўзи ҳам мустақил ва айни вақтда сайлов комиссиялари мустақиллигининг том маънодаги ҳимоячиси сифатида фаолият олиб борадиган орган сифатида қонунчилик ташаббус ҳуқуқини амалга ошириш орқали қонун ижодкорлиги жараёнида сайлов комиссияларининг фаоллигини таъминлаши алоҳида аҳамиятга эга.

Шу боис, Марказий сайлов комиссияси қонунчилик таклифларини қонунчилик ташаббуси тартибда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига киритишга ҳақли эканлиги Конституция билан белгиланди. Бу эса сайлов қонунчилигини янада токомиллаштиришга ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Шунингдек, Конституциянинг 129-моддасида кўра Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига, вилоятлар, туманлар, шаҳарлар давлат ҳокимияти вакиллик органларига сайловларни, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг референдумини ташкил этиш ва ўтказиш учун Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан фаолиятининг асосий принциплари мустақиллик, қонунийлик, коллегиялик, ошкоралик ва адолатлиликдан иборат бўлган Марказий сайлов комиссияси тузилади деб мустаҳкамланган.

Бу сайловларга тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказиш, шунингдек, фуқароларнинг



конституциявий сайлов ҳуқуқларини амалга оширишни таъминлаш бўйича умумэтироф этилган халқаро принциплар ва стандартларни ҳисобга олган ҳолда, сайлов тизими ягона мустақил ва марказий орган томонидан назорат қилинишини назарда тутади.

Ушбу Конституциявий қоида сайлов тизимини такомиллаштиришга, сайлов жараёни иштирокчиларининг ҳуқуқий кафолатларини кучайтиришга, сайловларнинг ихчам, самарали, тизимли ва тартибли амалга оширилишини таъминлашга, сайлов қонунчилигининг бир хилда қўлланилишини таъминлашга хизмат қилади.

Ушбу моддада Марказий сайлов комиссиясининг раиси Ўзбекистон Республикаси Президентининг тақдимномасига биноан комиссия аъзолари орасидан беш йиллик муддатга комиссия мажлисида сайланади, айтиб бериш керакки бир шахс сурункасига икки муддатдан ортиқ Марказий сайлов комиссиясининг раиси этиб сайланиши мумкин эмаслиги ҳам белгиланган.

Сайлов кодексига эса энг сўнгги муҳим ўзгартишлар 2023 йил 6 майда “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси конституциявий қонуни билан киритилди.

Ушбу конституциявий қонун билан суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган фуқаролар, шунингдек оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этганлик учун суднинг ҳукмига кўра озодликдан маҳрум этиш жойларида сақланаётган шахслар сайловда иштирок этиш ҳуқуқидан фақат қонунга мувофиқ ҳамда суднинг қарори асосида маҳрум этилиши мумкинлиги, бошқа ҳар қандай ҳолларда фуқароларнинг сайлов ҳуқуқларини тўғридан-тўғри ёки билвосита чеклашга йўл қўйилмаслиги белгиланди.

Янгиланган Конституция талабларига мувофиқ, бугунги кунда маҳаллий кенгашларга сайловларни ва референдумни профессионал тажрибага эга бўлган, доимий асосда ишлайдиган, конституциявий орган саналмиш Марказий сайлов комиссияси ва сайлов комиссиялари томонидан марказлашган тартибда ташкил этилишини назарда тутадиган қонун лойиҳаси ишлаб чиқилди.

Мазкур қонуннинг қабул қилиниши туфайли умумэтироф этилган халқаро сайлов стандартлари асосида миллий сайлов қонунчилиги янада такомиллаштирилади.

Мухтасар айтганда, миллий сайлов тизимини янада демократлаштириш, сайлов қонунчилиги ва амалиётини умумэтироф этилган халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш, фуқароларнинг сайлов ҳуқуқларини янада кенг ва тўла таъминлашга қаратилаётган доимий эътибор ривожланган демократик давлат, эркин ва мустақил, фаровон жамият куришда муҳим омил бўлиши шубҳасиз.



МИЛЛИЙ САЙЛОВ ҚОНУНЧИЛИГИ: ТАРАҚҚИЁТ ВА ТАКОМИЛ

Баҳром Кучкаров,
Ўзбекистон Республикаси
Марказий сайлов комиссияси
Раисининг ўринбосари

Аннотация: ушбу мақолада миллий сайлов қонунчилигига доир илмий-назарий адабиётлар, тегишли статистик маълумотлар ва бошқа амалиёт материалларини ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш орқали ҳал қилиш муҳим эканлиги таҳлил этилган.

Калит сўзлар: сайлов тизими, сайлов, сайлов комиссияси, сайлов участкалари.

Мамлакатимида бўлиб ўтган муддатидан илгари Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловида сўнгги йилларда миллий сайлов қонунчилиги ва амалиётига киритилган ўзгаришлар муҳим аҳамият касб этади.

Бу Янги Ўзбекистоннинг умумэтироф этилган халқаро демократик сайлов тамойилларига садоқатининг, мамлакатимизда инсон ҳуқуқлари, жумладан, сайлов ҳуқуқини амалда тенг ва тўла таъминлаш борасида собитқадамлик билан амалга оширилаётган ислохотларнинг яна бир тасдиғи бўлади.

Сайлов қонунчилиги ва амалиётининг – муттасил ривожланиб ва такомиллашиб бориши эркин демократик давлатга хос муҳим жараён. Бунда халқаро сайлов стандартлари талаблари ва халқаро ташкилотларнинг сайловларни кузатиш миссияларининг мақбул тавсиялари ҳисобга олиниши, табиий.

Сўнгги йилларда ташқи дунё учун очиқ, рақобатбардош, демократик Янги Ўзбекистонни барпо этиш доирасида фуқароларнинг вакиллик органларига сайлаш ва сайланиш бўйича конституциявий ҳуқуқларини таъминлаш соҳасида кенг қамровли ва изчил ишлар амалга оширилмоқда.

Мамлакатимизда демократик ҳуқуқий давлатнинг энг муҳим белгиларидан бири бўлган умумий, тенг, тўғридан-тўғри, яширин овоз бериш тамойилларига таянган ҳолда сайлов ҳуқуқини кенг ва тўла таъминлашга, сайловларни эркин ва адолатли, очиқ-ошқора ўтказишга оид ҳуқуқий асосларни мустаҳкамлашга, жумладан, замонавий демократик сайлов тизимини ривожлантиришга қаратилаётган изчил ислохотлар ўзининг юксак самараларини бермоқда.

Нуфузли халқаро экспертлар таъкидлаганларидек, Янги Ўзбекистон шароитида сайлов қонунчилигини изчил такомиллаштириш ҳамда сайловларни ўтказиш амалиёти сифат жиҳатидан янги, янада юксак поғонага кўтарилди. 2023 йил 30 апрель куни бўлиб ўтган умумхалқ референдумида халқимизнинг сиёсий онги, ҳуқуқий маданияти ва тафаккурининг амалдаги ноёб маҳсули - илк бор фуқароларнинг фаол иштирокида шакллантирилган Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси қабул қилинди.

Янгиланган Конституция фуқароларнинг сайлаш ва сайланиш ҳуқуқини янада кенг ва тўла таъминлаш ҳамда миллий сайлов тизимини такомиллаштиришга қаратилган янги моддалар билан бойитилди.

Жумладан, муомалага лаёқатсиз деб топилган, шунингдек оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этганлиги учун озодликдан маҳрум этиш жойларида сақланаётган фуқаролар сайловда иштирок этиш ҳуқуқидан фақат қонунга мувофиқ ва суд қарори асосида маҳрум этилиши мумкинлиги мустаҳкамланди. Референдум ва сайловлар марказлашган ҳолда Марказий сайлов комиссияси раҳбарлигида сайлов комиссиялари тизими томонидан амалга оширилишига оид қоидалар билан тўлдирилди.

Бунгача суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган фуқаролар, шунингдек, оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этганлиги учун суднинг ҳукми билан озодликдан маҳрум этиш жойларида сақланаётган шахслар сайловда иштирок эта олмасди.

Дарҳақиқат, муомалага лаёқатсиз деб топилган фуқароларнинг сайлов ҳуқуқларининг тўлиқ чекланиши Инсон ҳуқуқлари декларацияси, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги пакт каби умумэтироф этилган халқаро ҳужжатларда белгиланган қоидаларга мос эмасди.

Инсон ҳуқуқлари бўйича Европа судининг 2010 йил 20 майдаги қарорида айтилишича, фақат ақлий қобилятга кўра тўлиқ сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш суднинг қарорисиз



қонуний деб ҳисобланиши мумкин эмас.

Айрим давлатлар қонунчилигида хусусан, Греция, Литва, Люксембург, Польша Озарбайжон, Арманистон, Россия, Қозоғистон, Қирғизистон, Болгария, Кипр ва Руминияда суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган фуқарони овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум қилишга доир қоидалар мавжуд.

Бироқ бошқа мамлакатларда, жумладан, Европанинг саккизта давлати - Белгия, Чехия, Венгрия, Португалия, Словения, Мальта, Эстония, Лихтенштейнда фуқаро суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилганидан кейин ҳам автоматик равишда сайлов ҳуқуқидан маҳрум этилмайди. Фуқаронинг муомала лаёқати тўғрисидаги масалани ҳал қилиш чоғида суд уни сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш тўғрисидаги масалани яқка тартибда кўриб чиқади.

Шу билан бирга, Европанинг Германия, Франция, Австрия, Дания, Буюк Британия, Финляндия, Ирландия, Италия, Швеция, Испания, Голландия, Словакия, Латвия, Хорватия каби аксарият давлатларида муомалага лаёқатсиз шахс ҳар қандай шароитда овоз бериш ҳуқуқидан маҳрум этилмаган.

Умуман олганда, сўнгги 15 йил давомида хорижий давлатлар қонунчилигида қонун ҳужжатларида сайлов ҳуқуқини чеклашга оид қоидаларни чиқариб ташлаш ёки муомалага лаёқатсиз шахсларни фақат суд қарори билан сайлов ҳуқуқидан маҳрум этиш тарафига ўзгартириш тенденцияси кузатилмоқда.

Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти (ЕХХТ)нинг Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси сайловни кузатиш миссияси томонидан Ўзбекистонда ўтказилган ҳар бир сайлов якуни бўйича тайёрланган ҳисоботларда муомалага лаёқатсиз деб топилган фуқароларнинг ва маҳкумларнинг сайлов ҳуқуқи таъминланмаганлиги салбий ҳолат сифатида қайд этиб келинар эди.

Бугунги кунда жаҳоннинг 173 давлати томонидан қабул қилинган “Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги халқаро пактга Ўзбекистон 1995 йилдан қўшилган.

Мазкур Халқаро пактнинг 2-моддасида белгиланганидек, ҳар бир иштирокчи давлат ўз ҳудудида турган ва ўз юрисдикцияси остида бўлган барча шахсларнинг ушбу пактда эътироф этилган ҳуқуқларини ҳеч бир айирмачиликсиз, жумладан, ирқи, танасининг ранги, жинси, тили, диний, сиёсий ёки бошқа эътиқодидан, миллий ёки ижтимоий келиб чиқиши, мулкӣ аҳволи, туғилиши ёки ўзга ҳолатидан қатъи назар ҳурмат қилиш ва таъминлаш мажбуриятини олади.

Шунингдек, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 21-моддасида ҳар бир инсон бевосита ёки эркин сайланган вакиллар орқали ўз мамлакатини бошқаришда қатнашиш ҳуқуқига эга эканлиги белгиланган.

БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича қўмитаси давлатларнинг ушбу халқаро ҳужжатларга риоя этишини назорат қилади ва маҳкумлар овоз бериши тақиқланган ҳуқуқатларни миллий қонунларни ўзгартиришга чақириб келади.

Бундан ташқари, БМТ Бош Ассамблеясининг 70-сессиясида резолюция қабул қилинган Бирлашган миллатлар ташкилотининг маҳкумлар билан муомала қилиш бўйича минимал стандарт қоидаларининг (Нелсон Манделла қоидаларининг) 5-қоидасида қамоқхона режими қамоқхонадаги ва озодликдаги ҳаёт ўртасидаги фарқни имкон қадар камайтиришга интилиши кераклиги тавсия этилган.

Шунингдек, “Манделла қоидалари”га кўра, маҳкумлар билан муомала қилганда, улар жамиятдан ажратиб олинганини эмас, балки улар ҳали ҳам жамият аъзоси эканлиги таъкидланиши лозим. Қамоқда сақлаш ёки бошқа шу каби жазо чорасига ҳукм қилинган шахслар билан муомалада улар ўтаётган муддат давомийлигини ҳисобга олиб, уларга қонунларга бўйсунуш ва озод этилганидан кейин ўз ҳаётини таъминлаш истагини сингдиришга, шунингдек, уларга янги ҳаётга мослашишда ёрдам беришга интилиш лозим. Маҳкумлар билан муомала уларда ўз кадр-қимматини ҳис қилиш ва ўз масъулиятини англаш туйғусини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Ўзбекистон дунёда маҳкумларнинг сайлов ҳуқуқлари қисман чекланган ягона давлат бўлмаса-да, ушбу ҳолат халқаро майдонда унга нисбатан айни шу соҳада эътирозлар билдирилишига сабаб бўлади.

Таъкидлаш жоизки, муомалага лаёқатсиз ва озодликдан маҳрум этилганларни сайлов ҳуқуқларидан маҳрум этиш масалаларида хорижий тажрибада бир хил ёндашув мавжуд эмас.



Масалан, оғир ёки ўта оғир жиноят содир этган шахсларга нисбатан қўлланилаётган хорижий тажриба шуни кўрсатадики, кўпгина мамлакатларда, жумладан, Озарбайжон, Албания, Дания, Исроил, Ирландия, Испания, Канада, Латвия, Литва, Македония, Норвегия, Сербия, Словения, Украина, Финляндия, Хорватия, Чехия, Швейцария, Черногория, Швецияда жиноят содир этган фуқароларнинг сайлов ҳуқуқлари умуман чекланмаган ёки фақат суд тартибидан Австралия, Белгия, Босния, Германия, Греция, Исландия, Италия, Люксембург, Мальта, Польша, Португалия, Руминия, Кипр, Молдова, Монако, Нидерландия, Норвегия, Словакия, Франция маҳрум қилиш жорий этилган.

Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси мазкур масалалар юзасидан халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар, умумэътироф этилган сайлов стандартлари, хорижий давлатлар тажрибаси, сайлов соҳасидаги олимлар ва экспертлар фикрлари ҳамда Ўзбекистонда 2016, 2019 ва 2021 йилларда ўтказилган сайловлар бўйича ЕХХТ ДИИХБ сайловни кузатиш миссияларининг якуний ҳисоботларидаги тавсиялар асосида ўз таклифларини ишлаб чиқди.

Унда жаҳон амалиётидаги тенденциялардан келиб чиқиб, муомалага лаёқатсиз деб топилганда ёки оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этганлиги учун озодликдан маҳрум этилганда, шахсни сайлов ҳуқуқларидан автоматик тарзда маҳрум этмаслик таклиф қилинди. Ушбу масала ҳар бир ҳолатда суд томонидан алоҳида баҳоланиши ва фуқарони сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш тўғрисида қарор қабул қилиниши керак.



АЙРИМ КОРПОРАТИВ НИЗОЛАРНИ СУДГА КЎРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

Эшимбетова Дармон Уразбаевна
Ўзбекистон Республикаси
Судьялар олий кенгаши хузуридаги
Судьялар олий мактаби
мустақил изланувчиси
эл.почта: darmonalawyer@gmail.com
+99890 920 79 86

АННОТАЦИЯ: Мақолада айрим корпоратив низоларнинг судларга тааллуқлилиги ва тааллуқлилиқ институтининг амалий муаммолари ёритилиб, процессуал қонунчиликка ўзгартиришлар киритиш зарурлиги ҳақида фикр юритилади. Айрим корпоратив низолар юзасидан бирлаштирилган талаблар бўйича даъво аризаларини қабул қилиш тартибини такомиллаштириш ҳақида амалий таклифлар баён этилади.

КАЛИТ СЎЗЛАР: корпоратив низо, корпоратив муносабатлар, тааллуқлилиқ, бирлаштирилган талаблар, фуқаролик ишлари бўйича судлар, иқтисодий суд, аризани бошқа судга ўтказиш, ажрим чиқариш.

Тааллуқлилиқ турли суд тизими ваколатига берилган ишлар доирасини белгилаб беришда, шунингдек ишларни кўриш ва ҳал қилиш ҳуқуқига эга бўлган, айтилик прокуратура, нотариат, фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш идоралари, меҳнат низолари комиссияси ва бошқа органлар ўртасидаги ҳуқуқий ишларнинг чегарасини аниқлашда муҳим муносабат ҳисобланади[1].

Судга тааллуқлилиқ ва судловга тегишлилик тушунчалари анча умумийроқ тушунча ҳисобланган аниқ бир суд ваколатларининг таркибий қисмлари ҳисобланади. Шу сабабли ваколатли суд деганда, бир вақтнинг ўзида шу судга тааллуқли ва тегишли бўлган ишларни кўриш ваколатига эга бўлган судни тушуниш лозим[2].

Юқорида келтирилган олимлар фикрини қувватлаган ҳолда ишларнинг судга тааллуқлилиги юзасидан қуйидаги фикрларни билдириш мумкин. Маълум тоифадаги низоларни ҳал этиш масаласининг судлар ўртасида тааллуқлилиги муаммолари, жумладан корпоратив низоларнинг тааллуқлилигини аниқлаш, айниқса долзарб бўлиб, бу масаланинг ечимини топишда кўплаб ёндошув ва фикрлар хилма-хиллигига дуч келинган. Бу жараён бугунги кунда ҳам давом этиб келмоқда ва ушбу тоифадаги низоларни ҳал этишда судларнинг процессуал қонунчиликда ўз ечимини топмаган муаммоларга дуч келишига сабаб бўлмоқда. Булардан бири - ўзаро боғлиқ бирлаштирилган талабларнинг судларга тааллуқлилиги масаласидир.

И.Салимова фикрича ўзаро боғлиқ бирлаштирилган талабларга нисбатан тааллуқлилиқ қоидаларини қўллаш муаммолари сифатида: биринчидан, процессуал қонунчиликда ўзаро боғлиқ талаблар деганда айнан қандай талаблар назарда тутилиши мустаҳкамланмаганлиги; иккинчидан, унинг процессуал хусусиятлари бўйича илмий қарашларнинг мавжуд эмаслиги; учинчидан, ўзаро боғлиқ бўлган талабларни бирлаштириш бўйича процессуал механизмнинг мавжуд эмаслиги; тўртинчидан, ўзаро боғлиқ талаблар бирлаштирилган тақдирда ушбу талаблар айнан қайси процессуал қонунчилик нормалари асосида кўриб чиқилиши белгиланмаганлиги; бешинчидан, ушбу талабларни кўришда хорижий инвесторларнинг манфаатлари ҳисобга олинмаганлиги; олтинчидан, бир вақтнинг ўзида фуқаролик, иқтисодий ва маъмурий судларга тааллуқли бўлган ўзаро боғлиқ талабларни кўришнинг процессуал тартиби белгиланмаганлиги каби муаммолар қайд қилинди[3].

Мазкур фикрга қўшилган ҳолда, ҳақиқатан ҳам ўзаро боғлиқ низоларни кўришда қонунчиликда аниқ белгиланган мезонлар мавжуд эмаслиги амалиётда бундай низоларни кўриб чиқишда ва қонуний, асосланган ва адолатли суд қарорлари қабул қилинишида ва бу соҳада ҳар жихатдан ҳуқуқий асосланган мукамал суд амалиётини шакллантиришда салбий таъсир ўтказиши табиий.

ИПК нинг 25-моддаси бешинчи қисмига асосан ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари иқтисодий судга, бошқалари эса фуқаролик ишлари бўйича судга тааллуқли бўлган бир нечта талаб



бирлаштирилган тақдирда, барча талаблар фуқаролик ишлари бўйича судда кўрилиши лозим[4], деб белгиланган.

Худди шу тарзда Ўзбекистон Республикаси фуқаролик процессуал кодексининг 27-моддаси биринчи қисмида ҳам “Ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари фуқаролик ишлари бўйича судга, баъзилари эса иқтисодий судга тааллуқли бўлган бир нечта талаб бирлаштирилганда, барча талаблар фуқаролик ишлари бўйича судда кўрилиши керак[5]”, деб белгиланган.

Лекин бу нормаларни фикримизча, корпоратив муносабатлардан келиб чиқадиган низоларнинг тааллуқлигига нисбатан қўллаш нотўғри. Чунки бу тоифа низоларга нисбатан мутлақ тааллуқлилиқ белгиланган бўлиб, бу мазкур низоларнинг фақат иқтисодий судларга тааллуқлилигини англатади.

Россия процессуал қонунчилигида ўзаро боғлиқ талабларни ҳал қилиш тартиби РФ АПК нинг 27-моддаси 7-бандида белгиланган бўлиб, унга кўра агар ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари арбитраж судига, бошқалари эса умумюрисдикция судларига тааллуқли бўлган бир нечта талаб бирлаштирилган ҳолда даъво билан мурожаат қилинганда, агар бирлаштирилган талабларни ажратиш мумкин бўлмаганда барча талаблар умумюрисдикция судларида кўрилиши белгиланган, бироқ агар талабларни ажратиш мумкин бўлганда эса, судья талабнинг арбитраж судига тааллуқли қисми юзасидан талабни иш юритишга қабул қилиш, умумий юрисдикция суди судловига тааллуқли қисми юзасидан эса аризани қайтариш тўғрисида ажрим чиқариши белгиланган[6].

Келтирилган мазкур нормаларни ўзаро қиёсий таҳлил этар эканмиз, миллий қонунчиликда бошқа-бошқа судларнинг судловига тааллуқли бўлган ва ўзаро боғлиқ бўлган бирлаштирилган талабларни, хусусан фуқаролик суди ва иқтисодий судга тааллуқли низоларни ажратиш институти белгиланмаганлигини кўрамиз. Гарчи, ИПК нинг 159-моддаси талабларида даъво аризасини иш юритишга қабул қилиш пайтида ҳам талабларнинг бир қисмини алоҳида иш юритишга ажратиш белгиланган бўлсада, бу норма юқорида келтирилган тарзда, яъни барча талаблар фуқаролик судига тааллуқли деб белгиланганлиги учун қўлланилмайди.

Келтирилган таҳлиллардан хулоса сифатида фикримизча, мазкур институтнинг процессуал имкониятларидан фойдаланган ҳолда бундай талаблар билан мурожаат қилинган бўлса, ўзаро боғлиқ талабларни ажратишни ИПК ва ФПК нинг тегишли нормаларига киритиш тааллуқлилиқ борасидаги коллизийларнинг имкон қадар бартараф этилишига ва низоларнинг тегишли судлар томонидан кўрилишини таъминлаган бўларди.

Шу нуқтаи назардан процессуал қонунчиликка қуйидаги ўзгартиришлар таклиф этилади:

1. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал Кодексининг 25-моддаси бешинчи қисмини қуйидаги таҳрирда қабул қилиш: “Ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари иқтисодий судга, бошқалари эса фуқаролик ишлари бўйича судга тааллуқли бўлган бир нечта талаб бирлаштирилган тақдирда, агар бирлаштирилган талабларни ажратиш мумкин бўлмаганда барча талаблар фуқаролик ишлари бўйича судда кўрилиши лозим, бундан ушбу кодекс 30-моддасида белгиланган корпоратив низолар бўйича ишлар мустасно.

Агар ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари иқтисодий судга, баъзилари эса фуқаролик ишлари бўйича судга тааллуқли бўлган бир нечта талабни ажратиш мумкин бўлганда, иқтисодий судга тааллуқли қисми юзасидан судья талабни иш юритишга қабул қилиш, фуқаролик суди судловига тааллуқли қисми юзасидан эса даъво аризасини фуқаролик судига кўриб чиқиш учун ўтказиш тўғрисида ажрим чиқаради”.

2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал Кодексининг 27-моддасининг иккинчи қисмини қуйидаги таҳрирда қабул қилиш: “Ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари фуқаролик ишлари бўйича судга, баъзилари эса иқтисодий судга тааллуқли бўлган бир нечта талаб бирлаштирилганда, агар бирлаштирилган талабларни ажратиш мумкин бўлмаганда барча талаблар фуқаролик ишлари бўйича судда кўрилиши лозим, бундан корпоратив ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низолар бўйича ишлар мустасно.

Агар ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари фуқаролик ишлари бўйича судга, баъзилари эса иқтисодий судга тааллуқли бўлган бир нечта талабни ажратиш мумкин бўлганда, фуқаролик судига тааллуқли қисми юзасидан судья талабни иш юритишга қабул қилиш, иқтисодий суд судловига тааллуқли қисми юзасидан эса аризани иқтисодий судга кўриб чиқиш учун ўтказиш тўғрисида ажрим чиқаради” таҳририда қабул қилиниши таклиф этилади.

Юқорида келтирилган нормаларнинг таклиф қилинган таҳрирда қабул қилиниши низоларнинг, айниқса корпоратив низоларнинг судларга тааллуқлилиги соҳасидаги



зиддиятларни бартараф этишга ва амалиётда процессуал қонунчиликни қўллаш соҳасида судлар фаолиятининг самарадорлигини таъминлашга хизмат қилган бўларди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. М.Мамасиддиқов. Фуқаролик ишлари бўйича масалалар ва тест саволлари. Ўқув қўлланма. 3-б. Тошкент. “Адолат” нашриёти – 2016. https://drive.google.com/file/d/1Tm_fND8Fr2fBIbb48pzSj-p4EKOumDI4/view

2. Ф.Р.Гаджиева. Компетенция арбитражных судов: Проблемы теории и практики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. С-Саратов – 2010.

3. И.Салимова. Иқтисодий низоларнинг тааллуқлилиги (назарий-ҳуқуқий ва процессуал жиҳатлари). Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. – Т.: 2020. – Б. 14.

4. Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси. <https://lex.uz/docs/3523891>.

5. Ўзбекистон Республикаси фуқаролик процессуал кодекси. <https://lex.uz/docs/3517337>.

6. Арбитражный процессуальный кодекс Российской Федерации. <https://www.zakonrf.info/apk/27/>



**SPORT SOHASIDA QIMOR VA NOQONUNIY KELISHILGAN O‘YINLAR
O‘TKAZISHGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA XALQARO VA XORIJIY
TAJRIBA**

Беристенов Самат Оразбаевич,
Коракалпогистон Республикаси ИИБ
Ташкилий бошкарма бошлиги;
E-mail: beristenov.samat@mail.ru

Аннотатсия: Ushbu ilmiy ish natijasida respublikamizda ham tobora avj olib borayotgan va juda dolzarb hisoblangan soha, ya’ni sport sohasida qimor va noqonuniy kelishilgan o‘yinlar o‘tkazishga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro va xorijiy tajriba yoritib berilgan.

Калит so‘zlar: Qimor, tavakkalchilik, noqonuniy o‘yin, sport anjomlari, kelishilgan o‘yin, sport musobaqasi.

Sport sohasida kelishilgan o‘yinlarni tashkil etish hamda unda ishtirok etish amaldagi milliy qonunchilikda noqonuniy holat sifatida belgilanmagan. Chunki sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi bilan bog‘liq munosabatlar qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinmagan.

Sportdagi musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi, musobaqa qoidalari Xalqaro sport tashkilotlarining me’yoriy hujjatlariga muvofiq bo‘lgan sport federatsiyalarining (assotsiatsiyalarining) ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

Shu sababli, sport sohasidagi noqonuniy tavakkalchilikka oid barcha holatlar, ayniqsa kelishilgan o‘yinlarni tashkil etish yoki unda ishtirok etish O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik hisoblanmaydi, tijoratdagi poraxo‘rlik bilan bog‘liq jinoyatlar bundan mustasno.

Sportda kelishilgan o‘yin tushunchasi xalqaro standartlarda “**sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish**” sifatida ifodalagan. Yevropa Kengashi tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish bo‘yicha Konvensiyaning 3-moddasida sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish sport musobaqasi natijalarini yoki musobaqadagi jarayonni nomuvofiq ravishda o‘zgartirishga qaratilgan oldindan kelishish, harakat yoki harakatsizlik tarzida izohlangan. Ushbu tushuncha musobaqada yoki uning biror bosqichida qasddan yutqazish, hakam yoki musobaqaning boshqa tashkilotchisi tomonidan o‘yin qoidalarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi, musobaqa jarayonida uning natijasiga ta’sir qiladigan boshqa to‘siqlarni (masalan, foydalanishga yaroqsiz sport anjomlari) o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunida rasmiy sport musobaqalarining natijalariga noqonuniy ta’sir o‘tkazishni taqiqlash va unga qarshi kurashish bilan bog‘liq **normalar nazarda tutilmagan.**

Ta’kidlash joizki, “Sportradar Integrity Services” xalqaro tashkilotining tahlillariga ko‘ra, **76 ta** xorijiy davlatda 2021-yil davomida **10 ta** sport turi bo‘yicha **903 ta** shubhali (kelishilgan) o‘yinlar o‘tkazilgan. Ushbu sport musobaqalari asosida o‘tkazilgan tavakkalchilikka asoslangan garov o‘yinlaridan **174 mln** AQSh dollari foyda olingan.

Shu munosabat bilan, Yevropa Kengashi tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Sport musobaqalarini manipulyatsiya qilish bo‘yicha **Konvensiyasi**, [1] Yevropa Parlament Assambleyasining 2012-yildagi 1876-son **Rezolyutsiyasi** [2] hamda Yevropa Vazirlar Qo‘mitasining 2011-yildagi 10-son tavsiyalarida [3] kelishilgan o‘yinlarni aniqlash sport federatsiyalarining (assotsiatsiyalarining) majburiyati ekanligi, ularning bu boradagi faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash lozimligi nazarda tutilgan bo‘lib, a’zo davlatlar tomonidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etilgan:

- sport federatsiyalarida (assotsiatsiyalarida) kelishilgan o‘yinlar tashkil etilishini nazorat qiluvchi organi tashkil etish;
- sport musobaqalaridagi shubhali harakatlar yuzasidan vakolatli davlat organini tezkor xabardor qilish tartibini joriy etish;
- sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) bilan vakolatli davlat organlari o‘rtasida faol ma’lumot almashishni yo‘lga qo‘yish;
- sportdagi kelishilgan o‘yinlar yuzasidan vakolatli davlat organiga xabar bergan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishning samarali



mexanizmlarini qonunchilikda belgilash;

– musobaqa taraflari, shu jumladan, yosh sportchilarning kelishilgan o‘yinlar bilan bog‘liq xavf bo‘yicha xabardorlik darajasini oshirish;

– sport sohasida korrupsiya holatlarini oldini olish va unga qarshi kurashish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmagan sport federatsiyalarini (assotsiatsiyalarini) davlat tomonidan moliyalashtirishni to‘xtatish;

– sport musobaqalarining natijalariga noqonuniy ta’sir o‘tkazish majburlash, korrupsiya yoki firibgarlik kabi qilmishlarni o‘zi ichiga olgan bo‘lsa, ushbu qilmishni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish. Bunda shaxsga nisbatan sport federatsiyasi (assotsiatsiyasi) tomonidan intizomiy jazo qo‘llanganligi shaxsni jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortishni istisno etmaydi.

Dunyo miqyosida **45 ta** mamlakat, jumladan **Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Gretsiya, Yangi Zelandiya, Braziliya, Polsha, Latviya, Litva, Gruziya, Ukraina, Rossiya va Qirg‘iziston** qonunchiligida rasmiy sport musobaqalarining natijalariga turli shakllarda noqonuniy ta’sir o‘tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.[4] Shuningdek, ushbu davlatlarda sportdagi korrupsiya holatlariga qarshi kurashishning samarali usullari joriy etilgan.

Jumladan, **Germaniya** Jinoyat kodeksi 265d-moddasiga muvofiq, shaxs sportchi yoki murabbiy sifatida professional sport musobaqasining borishiga yoki natijasiga boshqa taraf foydasi uchun ta’sir ko‘rsatish evaziga o‘zi yoki uchinchi shaxs foydasiga moddiy qimmatliklar olishi, mulkiy manfaatdor bo‘lishi yoki uni talab qilishi uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatda ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi tayinlanishi sabab bo‘ladi.[5]

Mazkur moddada sport hakamining yuqoridagi qilmishni sodir etganligi, sportchi, sport murabbiyi hamda sport hakamiga pora berish uchun ham yuqoridagi kabi jazo tayinlanishi nazarda tutilgan.

Daniyada kelishilgan o‘yinlar yoki sport etikasini buzadigan boshqa holatlar yuzasidan onlayn (ya’ni antidoping.dk sayti orqali[6]), raqamli ilova yoki telefon orqali xabar qilish mumkin. Onlayn va raqamli ilova orqali xabarlar anonim tarzda berilishi mumkin.

Estoniyaning “Sport to‘g‘risida”gi Qonuni 11¹-moddasida sport musobaqalaridagi manipulyatsiyaga qarshi kurashish uchun milliy aloqa punkti (national contact point) tashkil etilishi belgilangan.[7] Milliy aloqa punkti sport musobaqalaridagi manipulyatsiyaga qarshi kurashishga oid ma’lumotlarni yig‘adi; sport musobaqalaridagi manipulyatsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtiradi; davlat organlari, sport tashkilotlariga ehtimoliy huquqbuzarliklar yuzasidan ma’lumot taqdim etadi; ushbu sohadagi milliy va xalqaro darajadagi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Milliy aloqa punktining vazifalari Madaniyat vazirligi tomonidan ijro etiladi.

Rossiya qonunchiligida ham sportdagi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish masalalari nazarda tutilgan. Xususan, “Rossiya Federatsiyasida jismoniy madaniyat va sport to‘g‘risida”gi Qonunning 26.2-moddasiga ko‘ra, quyidagi qilmishlar rasmiy sport musobaqalarining natijalariga huquqqa zid ta’sir o‘tkazish hisoblanadi:

– sport musobaqasi ishtirokchilariga pora berish, ularni majbur qilish;

– sport musobaqasi ishtirokchilaridan pul yoki boshqa moddiy qimmatliklar olish yohud boshqa mulkiy manfaatlar qabul qilish;

– mehnat yoki boshqa faoliyatni amalga oshirish natijasida qo‘lga kiritilgan sport sohasidagi ichki (insayderlik) ma’lumotdan foydalanish yoki uni tarqatish;

– sport sohasida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish yuzasidan chora ko‘rmaslik. Mazkur moddada, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvi va ichki (insayderlik) ma’lumotning tushunchasi, sport musobaqalariga ta’sir o‘tkazishga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar, sport federatsiyalarining (assotsiatsiyalarining) korrupsiya holatlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlarini belgilangan.

Shuningdek, Qonunda Rossiya Federatsiyasining Sport vazirligiga sport sohasidagi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi vakolatlari nazarda tutilgan:

– sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) tomonidan qonunda nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganda, ularning davlat akkreditatsiyasi amal qilishini to‘xtatish yoki tugatish;

– sport federatsiyasini (assotsiatsiyasini) umumrossiya sport federatsiyalari reyestridan chiqarish bo‘yicha qaror qabul qilish.

Rossiya Jinoyat kodeksining 184-moddasiga muvofiq, rasmiy sport musobaqasi natijasiga huquqqa zid ta’sir o‘tkazish maqsadida uning ishtirokchisi, murabbiyi, hakami yoki tashkilotchisiga moddiy qimmatliklar berish, ularni mulkiy manfaatdor qilish, ularni majburlash yoki ular bilan



oldindan kelishish shuningdek ushbu shaxslarning moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi 300ming rubldan 700ming rublgacha jarima solishga, 4 yilgacha majburiy ishlar jazosi tayinlanishiga yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishga sabab bo‘ladi.

Rasmiy sport musobaqasining hakami yoki tashkilotchisining musobaqa natijasiga huquqqa zid ta’sir o‘tkazish maqsadida pora olishi yoki oldindan kelishishi og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan.[8]

Ukrainada sportdagi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar “Rasmiy sport musobaqalarining natijalariga korrupsion huquqbuzarliklarning ta’sir ko‘rsatishiga barham berish to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan.[9] Qonunga ko‘ra, Korrupsiyani bartaraf etish masalalari bo‘yicha milliy agentlik, Ukrainaning Yoshlar va sport vazirligi, sport federatsiyalari, Milliy olimpiya qo‘mitasi va boshqa sport tashkilotlari rasmiy sport musobaqalarining natijalariga ta’sir qiluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashuvchi subyektlar hisoblanadi hamda bu borada quyidagi vakolatlarga ega:

- korrupsiya holatlari to‘g‘risida axborotlar olish hamda ularni tekshirish;
- korrupsiya holatlari bo‘yicha sportchi, musobaqa tashkilotchilaridan yozma tushuntirish olish;
- korrupsiya holatlari to‘g‘risida axborotlarni tekshirishda jamoatchilik vakillari hamda mutaxassis ishtirokini ta’minlash;
- ish holatlaridan boxabar shaxslarni so‘roq qilish;
- tekshiruv natijalari bo‘yicha bajarilishi majburiy bo‘lgan qaror qabul qilish;
- korrupsiya holatlariga qarshi kurashish yuzasidan xalqaro va milliy sport tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Subyektlar o‘z vakolatlari doirasida sport sohasidagi korrupsiya holatlarini oldini olish yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi talab etiladi:

- sport sohasidagi korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda o‘zaro hamkorlik qilish;
- korrupsiya holatlarini tekshirish va oldini olishga qaratilgan normativ va metodik hujjatlar ishlab chiqish va tasdiqlash;
- rasmiy sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini tizimli tahlil qilish;
- sport sohasidagi korrupsiya holatlari yuzasidan (anonim) xabar berish imkoniyatini yaratish hamda korrupsiya holatlari to‘g‘risidagi xabarlarni tekshirish amaliyotini umumlashtirish;
- sportda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va bartaraf etish bo‘yicha monitoringni amalga oshirish hamda tadqiqot o‘tkazish;
- sport sohasi bo‘yicha qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish.

Rasmiy sport musobaqalarining natijalariga noqonuniy ta’sir o‘tkazish uchun Ukraina Jinoyat kodeksi 369-3-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan.[10]

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagilar taklif etiladi:

1. Rasmiy sport musobaqalarining natijalariga nomuvofiq ta’sir o‘tkazish taqiqlanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va unda quyidagilarni nazarda tutish:

a) rasmiy sport musobaqalarining natijalariga nomuvofiq ta’sir o‘tkazish tushunchasini aniqlashtirish, rasmiy sport musobaqalarining natijalariga nomuvofiq ta’sir o‘tkazishni taqiqlash, rasmiy sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazishda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish;

b) rasmiy sport musobaqalarining natijalariga nomuvofiq ta’sir o‘tkazganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga qo‘shimcha kiritish.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://rm.coe.int/russian-cets-2015/16809ed41b>
2. <https://rm.coe.int/16806309df>
3. <http://www.jogoremoto.pt/docs/extra/mZqher.pdf>
4. https://www.unodc.org/documents/corruption/Publications/2021/Legal_Approaches_to_Tackling_the_Manipulation_of_Sports_Competitions_EN.pdf
5. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p2450
6. <https://antidoping.whistleblowernetwork.net/setup>
7. <https://www.riigiteataja.ee/akt/128022020003>



8. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/5b164b57cb7b6b9d3818fca16b7672f60fe5fc6c/
9. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=34583896
10. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30418109&pos=3417;-38#pos=3417;-38



VOYAGA YETMAGAN BOLALAR HUQUQLARINING HIMOYALANISHI

Adhamqulov Egamnazar Muhammadiy o‘g‘li

JDPU Tarix fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada voyaga yetmagan bolalar huquqlarining himoyalaniishi

Kalit so‘zlar: bola, voyaga yetmaganlar, qonun, konvensiya, deklaratsiya, BMT, YUNISEF, davlat, jamiyat, oila, ta’lim muassasalari, kelajak avlod, ota-onalar.

Inson o‘zida mavjud bo‘lgan eng yaxshi
narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur.[1]

Har bir davrda insoniyat o‘z kelajak avlodi uchun g‘amxo‘rlik qilib kelgan va buni eng muhim masalalar qatoriga kiritgan. Har bir jamiyatda oila bor ekan xudoni bergan oliy ne‘mati farzand voyaga yetmoqda. Farzandni tarbiyalab, uni jamiyat hayotiga daxldor shaxs sifatida voyaga yetkazish birmuncha murakkabroq vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda yoshlar tushunchasiga izoh berishimiz talab etiladi.

Mamlakatimizda 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar hisoblanadi. Aholi soniga nisbatan oladigan bo‘lsak yoshlar miqdori 1991- yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunga keltirilgan izohlarda, 14 yoshdan-30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar O‘zbekiston aholisining 33.3 foizini tashkil etgan. Bugungi kunda esa bu ko‘rsatkich 30 foizni tashkil etmoqda.[2] 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar aholimizning 40 foizni tashkil etadi. 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foini tashkil etmoqda.[3]

Shu o‘rinda jamiyatdagi yoshlar qatlamini 2 toifaga ajratishimiz mumkin bo‘ladi. Ular voyaga yetganlar va voyaga yetmaganlar.

Birinchi toifa 18 yoshga to‘lgan o‘z kelajak yo‘lini tanlagan o‘zining barcha shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy madaniy huquqlaridan bemalol foydalana olish imkoniyatiga ega, davlat oldidagi o‘z huquq va majburiyatlarini anglagan yoshlar toifasi tushuniladi.

Ikkinchi toifa hali 18 yoshga to‘lmagan ota- ona qarmog‘ida yoki ularning o‘rnini bosuvchi vasiy yoki homiylar tarbiyasidagi hali to‘liq huquqlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, o‘z qilmishlari haqida, harakat yoki harakatsizligi uchun javob bera olmaydigan yoshlar toifasidir.

Hokimiyatda ota-onasidan ajralib qolgan, ularning o‘rnini bosuvchi shaxsning nazoratidan chetda qolgan voyaga yetmagan shaxslar ishlari bilan davlatimiz shug‘ullanadi.

Voyaga yetmaganlarning huquqlarining himoyalaniishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, qolaversa xalqaro huquq e’tirof etgan shartnomalar, konvensiyalar ham qabul qilingan.

Bola huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, ularga yetarlicha sharoit yaratish maqsadida 2008-yil 7-yanvarda mamlakatimizda “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilishdan maqsad, bola huquqlarining kafolatlari, ularning ta’minlanishi, bolalarning qonuniy vakillari, vasiylar va homiylarni belgilash, jismoniy-ruhiy rivojlanishda nuqsoni bor bolalar, ijtimoiy ta’minotga muhtoj yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish va bu boradagi davlat siyosat yo‘nalishini belgilashdan iboratdir.

Shuningdek bolalarni himoya qilish xalqaro doirada ham keng amalga oshirilmoqda. BMTning bola huquqlari bo‘yicha alohida tashkiloti YUNISEF 1946-yildayoq tashkil etilgan.

1924-yilda qabul qilingan Jeneva deklaratsiyasi, 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1959-yil 20-noyabrda “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi deklaratsiya e’lon qilindi. 1989-yil 20-noyabrda esa BMT Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasida “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya qabul qilindi. O‘zbekiston bu konvensiyani 1992-yil 9-dekabr kuni ratifikatsiya qildi.

Demak, bu qabul qilingan milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar jamiyat va davlatlardagi bolalarning huquq va erkinliklarini to‘la ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi. Shu nuqtai-nazardan har bir davlat o‘z istiqboli uchun kelajak avlod tarbiyasiga alohida e’tibor beradi. Davlat bolalarning jismoniy



yetuk, aqlan, ruhan sogʻlom boʻlishi, munosib shaxs sifatida kamol topishi uchun gʻamxoʻrlik qiladi. Bunga birgina oiladagi bolalar soniga qarab davlat hisobidan pul ajratilishini koʻrsatishimiz mumkin.

Bola huquqlari toʻgʻrisidagi barcha meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda bolalar tili, irqi, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼiy nazar barcha huquqlardan foydalanishi belgilangan.

Bu borada milliy qonunchiligimizda ham belgilab qoʻyilgan. Har bir bola yashash, oʻz oilasiga, ota-onasiga ega boʻlish, tibbiy xizmatdan foydalanishi, bilim olishi, mulk egasi boʻlish, adolatli mehnat sharoitida ishlash kabi huquqlarga ega.

Voyaga yetmaganlarni majburiy mehnatga jalb etish qonun bilan taqiqlanadi. Bu borada 1997-yil 17-iyun kuni Jenevada xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan “Bolalar mehnatlarining eng yomon shakli toʻgʻrisida”gi 182-konvensiya qabul qilindi. Bu konvensiyani Oʻzbekiston 2008-yil 27-mart kuni ratiifikatsiya qildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Voyaga yetmagan shaxslar mehnatidan foydalanish uning sogʻligi, xavfsizligi, odob-axloqiga ziyon yetkazishi mumkin. Shuning uchun bu holat boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi Kodeksga javobgarlik kiritilgan.

Davlatimiz voyaga yetmaganlarni huquq va erkinliklarini himoya qiladi va ular uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib kelmoqda. Jumladan, Mehnat kodeksining 77-moddasida ishga qabul yoshi 16 yosh, ota-ona roziligi boʻlsa 15 yosh, maktab oʻquvchilari uchun esa ota-ona yoki birining roziligi bilan 14 yosh etib belgilandi. Mehnat kodeksining 84-moddasida voyaga yetmaganlarni ishga qabul qilishda sinov muddat belgilanmaydi va ish beruvchi tomonida bir martalik bepul tibbiy koʻrik oʻtkazilishi va ish soatlari haftasiga 24 soatdan oshmasligining belgilanishi ham fikrimiz dalilidir.

Bularning barchasi voyaga yetmaganlarning davlat tomonidan himoyalinishiga eʼtibor desak boʻladi. Bolalarimiz kelajakda jamiyatga munosib oʻrin egallashi, barkamol shaxs boʻlib ulgʻayishi uchun ularga yetarlicha bilim va tajribalarni oʻrgatishimiz kerak. Hatto hadisi sharifda ham “Farzandingizni suvda suzishga, otda chopishga hamda otishga oʻrgatingiz” deb, bejizga aytilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Bola huquqlari toʻgʻrisida”gi xalqaro konvensiya
2. Fazilova D.X., Rashidova G. Europe, science and we international scientific and practical conference. Publishing House “Education and Science”. Iyul, 2020. Praha, Czech republic. P 189.
3. <https://uza.uz/ru/posts/yoshlar uchun yangi imkoniyatlar belgilandi. 472271>.
4. Oʻzbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari toʻgʻrisida” gi OʻRQ-637-son qonuni. 2008-yil 7-yanvar. <https://lex.uz>
5. “Bolalar mehnatlarining eng yomon shakllari toʻgʻrisida”gi 182-son konvensiya. 1999-yil 17-iyun.



NATO HARBIY KUCHLARINING AFG'ONISTONDA TINCHLIK O'RNATISH BO'YICHA FAOLIYATI

Raximov Baxtiyor Abduxamidovich
O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi
sirtqi ta'lim tinglovchisi,
podpolkovnik

ANNOTATSIYA: NATO harbiy kuchlari Afg'oniston hududida tinchlik o'rnatish bo'yicha boshlaga faoliyati bugungi kunda qanday yakun topdi. Mazkur tezis NATO harbiy tuzilmalari Afg'onistondagi faoliyatini hamda ularning tinchlik o'rnatish borasidagi rolini o'rganishga qaratilgan masalalar yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: NATO, ISAF kuchlari, harbiy kuchlar, harbiy tuzilmalar, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish.

NATO harbiy kuchlarining Afg'onistondagi tinchlik o'rnatish bo'yicha faoliyati XX asrning so'nggi choragida boshlangan Afg'onistondagi fuqarolar urushi ushbu asrning 90-yillariga kelib yanada ayanchliroq ko'rinish olgan vaqtda boshlangan. Etnik, diniy va hududiy qurolli guruhlar o'rtasida hokimiyatni egallash uchun o'zaro janglar olib borilayotgan bir paytda o'zlarini “tolibon”lar deb atagan yana bir yangi guruh paydo bo'lgan. Mamlakatdagi beqarorlik va parokandalikdan, mujohidlar guruhlarining birbiriga dushmanlik kayfiyatida ekanligidan foydalangan tolibonlar qisqa fursatda mamlakatning katta qismini qo'lga kiritdilar. Ular o'zlari egallab olgan hududlarda diniy-fundamentalistik asosdagi Islom Amirligini tuzganligini e'lon qilishdi. Afg'onistondagi hokimiyat uchun kurashlar, o'zaro qurolli janglar mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini butunlay izdan chiqarib yuborgan edi. Bu jarayonlarning barchasi afg'on xalqining hayotini va turmish-tarzini qiyin va og'ir ahvolga keltirib qo'ydi. Afg'onistonning ko'plab fuqarolari o'z uylarini tashlab mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'lishgan. Tolibonlarning tobaro katta kuchga aylanib borishi butun mintaqa mamlakatlari va xalqaro hamjamiyat uchun muammoli bir vaziyatni yuzaga keltirdi. Afg'onistondagi mavjud jarayonlar natijasida vujudga kelgan vaziyat ko'p vaqt o'tmasdan, Afg'onistondagi vaziyatning izdan chiqishi va tolibonlar rejimining qaror topishi butun dunyo mamlakatlari uchun naqadar katta xavf ekanligini ko'rsatib berdi [1].

Afg'onistondagi NATO va ISAF kuchlarining faoliyatiga prezident Hamid Karzay ma'muriyati va koalitsiya bo'yicha AQShning bir nechta hamkorlarida Vashingtonga nisbatan norozilikni vujudga keltirgan edi. Xususan, o'sha davrda amerikaliklar Afg'oniston giyohvand moddalarini ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan faol kurash olib borishdan bosh tortmoqdalar, bunda ular islom ekstremistlarini yo'q qilish bo'yicha vazifalarni bajarayotganliklarini e'lon qilganlar, giyohvandlik moddalarini bilan kurash esa, Buyuk Britaniya zimmasida ekanligini ta'kidlangan. Ammo aynan AQSh narkobiznes bilan kurashning juda boy tajribasiga (masalan, Kolumbiyada) hamda zaruriy texnik va moliyaviy imkoniyatlarga ega. Ammo aytish lozimki, o'sha paytda prezident Hamid Karzayning qat'iy iltimosiga ko'ra, AQSh mazkur muammoni hal qilish uchun o'z harakatlarini boshlab yuborgan edi.

2009-yil martida NATO va ISAF o'zining 2011-2014-yillarda Afg'onistondagi Xalqaro kuchlarning faoliyatini nazarda tutuvchi yangi strategiyasini e'lon qilgan. Yangi strategiyaga ko'ra ularning soni 2011-yilning bahorida taxminan 100 ming nafarga yetishini ko'zda tutardi. NATO va ISAF esa harbiy bo'linmalari oldida keyinchalik Afg'oniston qurolli kuchlari sonini ko'paytirib, uni 320 ming kishiga yetkazishdek vazifa qo'yilgan edi. O'sh paytdagi Pentagon rahbari Robert Geyts ma'lumotlariga ko'ra Xalqaro koalitsion kuchlar 2011-yil yozi o'rtalariga borib 150 ming nafardan iborat afg'on armiyasini tuzish nazarda tutilgan bo'lsa, 2010 yil oktyabriga borib askar va ofitserlar sonini 172 mingga yetkazish ko'zlangan edi [2].

NATO va ISAF mamlakatlari provinsiyalarni tiklash bo'yicha 5 ta brigada shakllantirishga tayyor ekanligini e'lon qilgan. Xalqaro xavsizlikni saqlovchi kuchlar yangi shakllantirilyotgan Afg'on milliy armiyasi bilan birgalikda 2011-yil boshlaridan 2013-yil yozigacha mamlakatdagi terroristik guruhlariga qarshi bir qancha aksiterroristik operatsiyalar olib borishgan. Bu operatsiyalar Afg'on milliy armiyasining ham bugungi qarshilik ko'rsatish va mamlakatni himoya qilish darajasini



ko'rsatib berdi. 2012-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, AQSh yetakchiligida “Tolibon” jangarilariga qarshi harakatda Singapur, Mo'g'uliston, Tonga, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Salvador kabi mamlakatlarning 120 mingdan ortiq harbiy kuchlari ishtirok etgan. 2015-yilgi holatga ko'ra NATO qo'shinlari joylashgan hudud mamlakatning 85% ini tashkil etgan. Reja asosiga ko'ra ittifoqning Afg'onistondagi ustunligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Afg'on hukumatiga mamlakatning barcha hududida nazorat o'rnatishda ko'mak berish;
- Ittifoq qo'shinlarining tartib va xavsizlikni o'rnatish majburiyatini olgan hududlarda Afg'on harbiy strukturasi bilan birga ish olib borish;
- Afg'on milliy armiyasini qo'llab quvvatlash va jangga bo'lgan shaylikni kuchaytirish;
- Afg'on hukumatining noqonuniy qismlarini qurolsizlantirishga qaratilgan dasturni qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Afg'onistondagi Ittifoq kuchlarining faoliyat muddati 2003-yil avgustidan 2014-yil dekabrigacha ekanligi ma'lum qilingan va bu davr oralig'ida NATO va ISAF qo'shinlari tarkibida 51 davlatdan 130 ming harbiylar qatnashgan. Xalqaro xavsizlik kuchlari tarkibidagi ko'pchilik davlatlar o'z askarlarini belgilangan muddatda mamlakatdan olib chiqib ketgan bo'lsada, Afg'onistondagi murakkab vaziyatni hisobga olgan holda hamda Afg'on milliy armiyasini shakillantirishni oxiriga yetkazish uchun 2017-yilgacha AQSh va unga ittifoqchi bir necha davlat qo'shinlari qolishi ma'lum qilingan edi. 2018-yilda esa NATO rahbari Yyens Stoltenberg alyansning nojangovar missiyasi sonini 18 mingga yetkazishini aytib o'tgandi. NAToning “Qat'iy ko'mak” missiyasi Afg'onistonda 2015-yil 1-yanvardan beri faoliyat yuritib kelmoqda edi. NATO va Afg'oniston o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, 2018-yil boshlarida Afg'onistonda NAToning 12 mingga yaqin harbiysi bor bo'lib, ularning vazifalariga Afg'oniston kuch tuzilmalarini o'qitish va ularga maslahat berish kiritilgan. Missiya nojangovar deb e'lon qilingan. Ammo ushbu kuch tuzulmalari Afg'onistonda qolib, afg'on harbiylarini o'qitish va maslahat berishda davom etishgan. Xususan, 2021-yil yanvar oyining o'rtalariga kelib Afg'onistondagi AQSh qo'shinlarining sonini 4500 nafardan 2500 nafargacha kamaytirmoqchi ekanligi haqda Pentagon ma'lum qilgan. Mudofaa vaziri vazifasini bajaruvchi Kristofer Millerning so'zlariga ko'ra, ushbu rejalar muayyan muddatga qadar amalga oshirilgan. Biroq, o'sha muddatda prezidentlik vazifasida bo'lgan Donald Trampning qarori AQShning NATO bo'yicha ittifoqdoshlari, shuningdek, Kongressdagi yuqori darajadagi respublikachilar va demokratlarning tanqidiga sabab bo'ldi. Ularning fikriga ko'ra, ushbu harakat Tolibon bilan tinchlik muzokaralari jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashgan [3].

NAToning kelajakda Afg'onistonga ko'rsatadigan yordami uchta asosga ega bo'ladi:

davlat idoralariga yordam ko'rsatish, harbiy ta'lim va treninglar o'tkazish hamda zarur xizmatlarni ko'rsatish, jumladan, Kobuldagi aeroportni ishlatish uchun moliyaviy yordam ajratish. Bularning barchasi NATO ittifoqchilari va xalqaro hamjamiyatga afg'on xalqiga yordam ko'rsatish hamda tinchlik ishlariga hissa qo'yish imkoniyatini berishga qaratilgan edi.

AQSh va NATO Afg'onistondan qo'shinlarni olib chiqishni boshlagandan beri Afg'onistonning shimolida Tolibon jangarilar bir nechta hududlarni osongina egallab olishga ulgurgan edilar. Ushbu hududlar jangarilar uchun strategik ahamiyat kasb etadi, chunki ular transport yo'llariga yaqin joylashgan. Biroq, aynan shimoliy Afg'onistonda 20 yil oldin Tolibonni hokimiyatdan olib tashlashda katta rol o'ynagan, bu yerda AQSHning missiyasida yordam bergan etnik guruhlar joylashgan bo'lib, tolibon erishgan yutuqlari tufayli endlikda Afg'onistonning Tojikiston bilan asosiy chegarasini nazorat qilgan. Bundan tashqari, Qobulni Shimoliy Afg'oniston bilan bog'laydigan yagona yo'l orqali o'tadigan Doshi strategik hududi ham ularning tasarrufiga o'tganida, yonma-yan jang qilish uchun bir nechta mahalliy askarlar guruhini to'plashgan edi. Ko'plab tahlilchilarning aytishicha, Tolibon mamlakatning deyarli yarmini, asosan, qishloq joylarini nazorat qilgan. NATO o'sha muddatda Afg'onistonning milliy xavsizlik va mudofaa kuchlarini qo'llab-quvvatlash uchun har yili \$4 milliard dollar ajratilganligi va bu mamlakat siyosiy vaziyatini barqarorlashtirishga xizmat qilishini ta'kidlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. X.E. Norqo'chqarov Nato va ISAFning Afg'onistondagi faoliyatiga qisqacha nazar. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804
2. Civil War, which became an international war. October 7-the date of the beginning of the international military operation in Afghanistan. 07.10.2020. <https://daryo.uz/2020/10/07/xalqaro->



urushga aylangan fuqarolik urushi 7-oktabrafgonistonda xalqaro harbiy operatsiya boshlangana/ 3. ISAF's mission in Afghanistan (2001-2014). Last updated: 13 Jan. 2015. 4. Robb, Jonjo. Analysing NATO's Role in Afghanistan. // Aberystwyth University, – Febral 8, 2015.

3. <https://uzreport.news/world/afgoniston-tolibonga-qarshi-kurashga-kongillilarni-safarbar-qilmoqda>

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 1-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000